

0.8.2
91
d-14
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



R.A.IBRAGIMOVA, A.S.SAMADOV, A.M.AVEZOVA

**JAHON GEOGRAFIYASI
(MATERIKLAR VA OKEANLAR
TABIIY GEOGRAFIYASI)**

O'zb. 2
91
d-14

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

R.A.IBRAGIMOVA, A.S.SAMADOV, A.M.AVEZOVA

JAHON GEOGRAFIYASI
(MATERIKLAR VA OKEANLAR TABIIY
GEOGRAFIYASI)

60530400-Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun
O'zMU Kengashi tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

Toshkent
"Ma'rifat"
2023

2024-0005/20

O'ZMU
GEOGRAFIYA VA TABIIY
RESURSLAR FAKULTETI
AGM

UO'K: 91(100)(075.8)

KBK: 26.8(0)ya73

I 14

Ibragimova R.A., Samadov A.S., Avezova A.M. Jahon geografiyasi (Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi). O'quv qo'llanma.

–T.: “Ma’rifat”, 2023. 96 bet.

Jahon geografiyasi oliy ta’lim tizimida yuqori malakali geograflar tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Ushbu fan to’rt qismdan iborat bo’lib, u o’z ichiga Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi, Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi, O’rta Osiyo tabiiy geografiyasi hamda O’rta Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini qamrab oladi. Mazkur o’quv qo’llanma “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” qismiga bag’ishlangan. Yevrosiyo, Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Afrika, Avstraliya va Okeaniya, Antarktida materiklari haqida qisqacha ma’lumotlar, test topshiriqlari hamda nazorat savollari berilgan.

O’quv qo’llanma 60530400-Geografiya ta’lim yo’nalishi talabalari uchun mo’ljallangan. Shu bilan birga magistrantlar, ilmiy izlanuvchilar, professor-o’qituvchilar ham foydalanishlari mumkin.

UO'K: 91(100)(075.8)

KBK: 26.8(0)ya73

I 14

Mas’ul muharrir:

M.Mirakmalov – O’zMU Tabiiy geografiya kafedrasi mudiri

Taqrizchilar:

O‘.Abdunazarov – O’zMU Tabiiy geografiya kafedrasi dotsenti

Sh.Shomurodova – Chirchiq davlat pedagogika universiteti Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari kafedrasi mudiri PhD

Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti Kengashida muhokama qilinib, o’quv qo’llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan (31.03.2023 yil 8-sonli majlis bayonnomasi).

ISBN: 978-9943-9722-1-6

© “Ma’rifat” nashriyoti, Toshkent, 2023 y.

SO‘Z BOSHI

Hududiy (regional) tabiiy geografiya, boshqa tabiiy fanlar ma'lumotlaridan foydalangan holda, hududiy darajadagi geotizimlarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Umumiy va hududiy tabiiy geografiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, umumiy o'rganish obyektiga ega va bir bilim sohasining bo'limlari hisoblanadi. Lekin ular umumiy o'rganish obyektiga turli nuqtai nazardan yondashadilar: biri uning umumiy xususiyatlari va qonuniyatlarini ochib beradi, ikkinchisi hududiy farqlarni tahlil qiladi va h.o.

Malakali geograf kadrlarni tayyorlash tizimida hududiy tabiiy geografiyaning uchta kursi mavjud: "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi", "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi" va "O'zbekiston tabiiy geografiyasi". Uchta kurs ham bir xil tamoyillarga asoslanadi va o'xshash tuzilishga ega, ammo hududning ko'lami, o'rganilayotgan materiallarning darajasi va tafsilotlari bilan farqlanadi. Demak, Geografiya yo'nalishi o'quv rejasidagi Jahon geografiyasi fanining asosiy tarkibiy qismi bo'lgan "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" kursi tabiiy geografiya tizimidagi asosiy fanlaridan biri bo'lib, tabiiy geografik fanlar tizimida yetakchi o'rinni egallaydi. Bu kursda barcha materiklar va unga yaqin joylashgan orollari bilan birgalikda batafsil o'rganiladi. Kurs talabalarga, dunyo qit'alarida inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning ekologik va geografik xususiyatlari, bunday o'zaro ta'sir paytida yuzaga keladigan geoekologik muammolar va ularni hal qilishning ba'zi mumkin bo'lgan usullari haqida asosiy g'oyalarni taqdim etadi.

Mazkur o'quv qo'llanmaga kiritilgan test topshiriqlari va nazorat savollarining maqsadi talabalarga darslik va ma'ruzalarda keltirilgan materialni o'zlashtirishga yordam berish, shu fanga tegishli bo'lgan turli manbalar, ma'lumotnoma nashrlar va ayniqsa, kartografik materiallardan foydalangan holda ma'lumotlarni maqsadli hamda mustaqil to'plash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.


Ushbu o'quv qo'llanmaning tayyorlash jarayonida o'z yordamlarini ayamagan, o'quv qo'llanmaga mas'ul muharrirlik qilgan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Tabiiy geografiya kafedrasini mudiri, geografiya fanlari doktori, dotsent M.Mirakmalovga, qo'llanmani ko'rib chiqib, o'z fikr-mulohazalarini bildirgan taqrizchilar – geografiya fanlari nomzodi, dotsent O'.Abdunazarov va PhD Sh.Shomurodovlarga minnatdorchilik bildiramiz.

Aziz kitobxonlar! Ushbu o'quv qo'llanma haqida taklif va fikr-mulohazalaringiz bo'lsa, biz bilan bog'laning. Ularni mamnuniyat bilan qabul qilamiz va bildirilgan fikr-mulohazalarni keyingi nashrlarida, albatta, e'tiborga olamiz.

E-mail: anor-0502@mail.ru

I BOB. YEVROSIYO MATERIGI

Yevrosiyo – Yer yuzasidagi eng katta materik. Maydoni 54 mln kv km (yer yuzining 37%) ni tashkil etadi. Materik atrofdagi orollar tarkibiga Shpisbergen, Frans Iosif yeri, Severnaya Zemlya, Malayziya arxipalagi, Azor orollari kabilar kiritiladi. Orollar maydoni 2,75 mln kv km ni egailaydi. Yer shari aholisining $\frac{3}{4}$ qismi shu materikda joylashgan. Sharqdan g'arbga 16 ming km, shimoldan janubga 8 ming km masofaga (90° kenglik va 160° uzunlikgacha) cho'zilgan. Yevrosiyaning chekka nuqtalari:



Materikning juda kattaligi uning tabiiy sharoiti murakkab va xilma-xil bo'lishiga olib kelgan. Materik ikki qit'aga Yevropa va Osiyoga ajratiladi. Ular orasidagi chegara Ural tog'larining sharqiy yonbag'ri, Ural daryosi, Emba daryosi, Kaspiy dengizining shimoli-g'arbiy qirg'oqlaridan, Kuma daryosi, Kuma-Manch botig'i, Manch daryosi, Qora dengizning sharqiy qirg'oqlari, Bosfor bo'g'izi, Marmar dengiz, Dardanell bo'g'izi, Egey va O'rta dengiz, Gibraltar bo'g'izi orqali o'tadi. Yevrosiyoda Yerning eng baland tog'i - Jomolungma (Everest) joylashgan. Eng katta ko'l - Kaspiy dengizi va eng chuqur - Baykal, maydoni bo'yicha eng katta tog' tizimi Tibetdir, eng katta yarimorol - Arabiston, eng katta geografik hudud - Sibir, quruqlikning eng past nuqtasi O'lik dengiz depressiyasidir. Shimoliy yarimsharning sovuq qutblari - Oymyakon ham materikda joylashgan.

1.1-§.YEVROSIYO MATERIGI BO'YICHA TEST TOPSHIRIQLARI

1. Quyidagi nuqtalarning qaysi biri Yevrosiyoning janubiy nuqtasi hisoblanadi?
A. Piay B. Rok C. Chelyuskin D. Dejnyov.
2. Ikki materik, ikki okean, ikki dengiz, ikki yarimorol va ikki ni ajratib turuvchi bo'g'iz qaysi?
A. Gibraltar B. Bosfor C. Bob-el Mandob D. Bering
3. Osiyoning qaysi qismi g'arbiy yarimsharda joylashgan?
A. G'arbiy B. Janubiy C. Sharqiy D. Shirmoliy
4. Skandinaviya va Shotlandiya tog'lari qaysi tog' hosil bo'lish bosqichida paydo bo'lgan?
A. Alp B. Laramiy C. Kamerun D. Kaledon
5. Quyidagi tog'lardan qaysi biri gersin burmalanishida paydo bo'lgan?
A. Tibet B. Alp C. Pomir D. Ural
6. Yevrosiyoning eng baland nuqtasi qaysi tog'da joylashgan?
A. Kavkaz B. Pomir C. Hindikush D. Himolay
7. Yevrosiyoning eng past nuqtasi qaysi?
A. O'lik dengiz B. Qoragiyo botig'i
C. Turfon botig'i D. Kasbiybo'yi past tekisligi
8. Alp burmalanishida qaysi tog'lar ko'tarilgan?
A. Meseta yassitog'ligi, O'rta Yevropa yassitog'ligi, Markaziy Fransiya tog'lari, Ural, Qozog'iston yassitog'ligi
B. Cherskiy tizmasi, Kolima, Chukotka, Sixote-Alin, Tibet tog'liklari
C. Skandinaviya, Shotlandiya va Irlandiya tog'lari
D. Apenin, Bolqon, Kopetdog', Qrim, Kavkaz tog'lari
9. Qaysi tekisliklarning g'arbidagi marsh vattlar joylashgan?
A. Hind-Gang B. Mesopatamiya C. Germaniya-Polsha D. G'arbiy Sibir
10. Temir va polimetall ruda konlari qaysi geologik tuzilmalarda eng ko'p uchraydi?
A. Platformaning qalqonida B. Platformaning plitasida
C. Tekisliklarda D. Botiqlarda
11. Yevrosiyo qanday ma'noni anglatadi?
A. Yevropa va unga tutash sharqdagi quruqlikni

- B. Osiyo va unga tutash g'arbdagi quruqlikni
 C. Yevropa va Osiyo qit'asining qisqartma nomi
 D. Shimoliy yarimshardagi eng katta quruqlikni
12. Yevrosiyo materigining chekka nuqtalaridan qaysi biri ortiqcha?
 A. Chelyuskin burni 77°43' sh.k B. Piay burni 1°16' sh.k
 C. Rok burni 9°34' g'.u D. Fligeli burni 81° 49' sh.k
13. Yevrosiyaning orollari bilan maydoni qancha?
 A. 66 mln. kv.km.dan ortiqroq B. 60 mln. kv.km.dan ortiqroq
 C. 58 mln. kv.km.dan ortiqroq D. 54 mln. kv.km.dan ortiqroq
14. Yevrosiyaning qaysi yarimorollarini ikki okean suvlari chegaralab turadi?
 A. Skandinaviya, Taymir B. Chukotka, Hindixitoy
 C. Arabiston, Hindiston D. Pireney, Apenin
15. Yevrosiyaning eng yirik oroli qanday nom bilan ataladi?
 A. Kalimantan B. Sumatra C. Saxalin D. Xyunsyu
16. Yevrosiyaning eng baland nuqtasi qanday nom bilan ataladi?
 A. Ismoil Somoniy cho'qqisi B. Kazbek cho'qqisi
 C. Everest D. Chogori cho'qqisi
17. Yevrosiyaning eng past nuqtasi qanday nom bilan ataladi?
 A. To'rfon B. Qoragiyo C. O'lik dengiz D. Mingbuloq
18. Yevrosiyaning Alp-Himolay mintaqasidagi yosh tog'larini ajrating.
 A. Tibet, Sayan, Tyanshan, Kunlun, Ural
 B. Vezuviy, Apenin, Alp, Karpat Kavkaz, Pomir, Himolay
 C. Pireney, Apenin, Alp, Karpat, Kavkaz, Pomir, Himolay
 D. Qoraqum, Tyanshan, Kunlun, Oltoy
19. Yevrosiyaning harakatdagi vulqonlarini toping?
 A. Tibet, Sayan, Kunlun, Ural, Tyanshan
 B. Ural, Arabiston va Dekan tog'ligi, Qozog'iston yassitog'ligi
 C. Pomir, Kavkaz, Himolay, Alp, Apenin, Pireney
 D. Vezuviy, Etna, Klyuchi Sopkasi, Fudzema, Krakatau, Erjiyas
20. Yevrosiyaning eng keksa tog'larini belgilang.
 A. Ural, Qozog'iston yassitog'ligi, Arabiston va Dekan tog'ligi
 B. Tibet, Sayan, Kunlun, Ural, Tyanshan
 C. Arabiston va Dekan tog'ligi, Qozog'iston yassitog'ligi
 D. Fudzyama, Klyuchi Sopkasi, Etna, Vezuviy

21. Yevrosiyaning sharqiy qismi Tinch okean "Olovli halqasi" ga yutashgan, nega shunday deb ataladi?

A. Materikning Tinch okean sohillariga barcha port shaharlarida kechayu-kunduz mayoq chiroqlari kuchli yorug'lik taratadi

B. Materikning Tinch okean sohilida yashindan o'rmonda tez-tez yong'inlar bo'lib turadi

C. Bu yerlarda harakatdagi vulqonlar ko'p. Vulqon lotincha "okov" "gulxan" demakdir. Vulqon og'zidan olovli lava otiladi, daryo kabi oqadi, zilzila bo'lib turadi.

D. Bu yerlarga quyosh nuri doimo vaqt sanog'ining birinchi kunlarida yorug'lik beradi.

22. Yevrosiyaning shimolidagi katta maydonlarning relyefini o'zgartirgan muz bosish qayerda joylashgan?

A. Skandinaviya yarimoroli va Novaya Zemlya orollari

B. Sharqiy Yevropaning shimolida

C. G'arbiy Sibirning shimolida D. O'rta Sibirning shimolida

23. Yevrosiyaning magmatik jinslar bilan bog'liq bo'lgan temir ruda nomlari qayerlarda keng tarqalgan?

A. Hindixitoy yarimorolida B. Arabiston yarimorolida

C. Hindiston va Skandinaviya yarimorollari, Xitoyning shimoli-sharqida, Ural tog'ida

D. Sharqiy Yevropa tekisligi

24. Yerning shimoliy yarimsharidagi sovuqlik qutbi qayerlarda joylashgan?

A. Frans-Yozef Yeri orolida B. Shimoliy qutbda

C. Oymiyakonda D. Novosibirsik orollarida

25. Yevrosiyodagi qaysi havza maydoni jihatidan eng katta hisoblanadi?

A. Berk havza B. Atlantika okeani havzasi

C. Tinch okeani havzasi D. Shimoliy muz okeani havzasi

26. Qaysi daryolar Shimoliy Muz okeani havzasiga tegishli?

A. Ob, Yenisey, Lena, Pechora B. Reyn Dunay, Vespa, Odra, Elba

C. Yantszi, Xuanxe, Mekong, Amur D. Gang, Hind, Dajla, Frot

27. o'rta dengiz sohillaridagi subtropik o'rmonlarning tipik o'simliklaridan qaysilarini bilasiz?

A. El, Pixta, Qayin B. Probka dubi, Qarag'ay, Savr, Kiparis

C. Bambuk (g'arov), Kamfor daraxti D. Dub, Tilog'och,
Qarag'ay

28. Yevrosiyo nechta tabiiy geografik o'lkaga bo'linadi?

A. 14 B. 3 C. 9 D. 11

29. Yevrosiyo materigi ichkarisiga chuqur kirib borgan okean hamda dengizlar uning ayniqsa qaysi chekka qismlarini juda parchalab yuborgan?

A. G'arbiy va janubiy B. Janubiy C. Janubi-sharqiy D.

Sharqiy

30. Yevrosiyaning eng keng va yaxlit ichki qismi qanday iqlim bilan tavsiflanadi?

A. Keskin kontinental B. Dengiz C. Musson D. Oraliq

Javoblar

1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.	9.	10.	11.	12.	13.	14.	15.
A	D	C	D	D	D	A	D	C	A	C	D	D	B	A
16.	17.	18.	19.	20.	21.	22.	23.	24.	25.	26.	27.	28.	29.	30.
C	C	C	D	A	C	A	C	C	A	A	B	A	A	A

Nazorat savollari

1. Yevrosiyaning tadqiq etilishiga qaysi olimlar hissa qo'shgan?
2. Yevrosiyoda qanday tog' hosil bo'lish bosqichlari sodir bo'lgan?
3. Yevrosiyoda qanday tekisliklar mavjud?
4. Yevrosiyoda qanday pasttekisliklar mavjud?
5. Yevrosiyoda qanday platolar mavjud?
6. Yevrosiyoda qanday iqlim mintaqalari tarkib topgan?
7. Yevrosiyaning qayerlariga yog'in ko'p tushadi?
8. Yevrosiyaning qayerlariga yog'in kam tushadi?
9. Yevrosiyoda qanday o'rollar va yarimorollar mavjud?
10. Yevrosiyaning mo'tadil mintaqada qanday tabiat zonalari shakllangan?
11. Yevrosiyaning subtropik mintaqada qanday tabiat zonalari shakllangan?
12. Yevrosiyo atrofida qanday dengiz va qo'ltiqlar mavjud?
13. Yevrosiyo atrofida qanday dengiz oqimlari shakllangan?
14. Yevrosiyoda qanday ko'llar mavjud?

15. Yevrosiyoda qanday daryolar mavjud?
16. Yevrosiyoda qanday daryo havzalari mavjud?
17. Yevrosiyoda qanday tuproqlar shakllangan?
18. Yevrosiyoda qanday o'simliklar o'sadi?
19. Yevrosiyoda qanday hayvonlar yashaydi?
20. Yevrosiyoda qanday tabiiy geografik o'lkalar ajratilgan?